

## TARJIMADA EKVIVALENTLIK TUSHUNCHASI

**Do'schonob Bobomurod Qadamboy o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiaton milliy universiteti  
sinxron tarjima yo'nalishi magistratura bosqichi 2-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ekvivalentlik tushunchasi va uning mohiyati, tarjimada ekvivalentlikning ahamiyati niyoriy berishga to'xtalangan. Shuningdek, maqolada ekvivalentlik tarjima usuli sifatida tarjima jarayonida qo'llanishi borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, ekvivalentlik, tarjima matni, usul, uslub, yondashuv.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается понятие эквивалентности и его сущность, значение эквивалентности при переводе. Также в статье рассматривается использование эквивалентности как метода перевода в переводческом процессе.

**Ключевые слова:** перевод, эквивалентность, текст перевода, метод, стиль, подход.

**Annotation:** this article focuses on the concept of equivalence and its essence, the importance of equivalence in translation. The article also discusses the use of equivalence as a translation method in the translation process.

**Keywords:** translation, equivalence, translation text, method, method, approach.

Ekvivalentlik – bu tarjimon tarjima jarayonida eng ko'p foydalanadigan tarjima usullaridan biri bo'lib, u lug'aviy birliklarni nutq so'zlovchining tilidan tarjima tiliga olib o'tish usuli sifatida ham foydalaniladi. Maqolada ekvivalentlikning tarjimadagi aynan mana shu vazifasi haqida so'z bordi. J.Abdug'aniyevaning fikricha, ekvivalentlik tarjimada bir necha vazifalarni bajaradi, jumladan, u tarjimaning asosiy voqeyligi hisoblanib, tarjimani o'rganishda katta samara beradi hamda tarjimalarni tahlil qilish uchun foydali kategoriyalar tarkibiga kiradi. Ekvivalentlik sohasi morfemalar, so'zlar, iboralar, jumalalar, idiomalar va atamalar kabi til birliklarini qamrab oladi. J. Kaftfordning fikricha, tarjima amaliyotining asosiy muammosi tarjima tilida ekvivalent birliklarni topishdir. Tarjimaning asosiy maqsadi tarjima ekvivalentligining tabiati va hodisalarining tavsifini berish.

Tarjimonlar ekvivalentlik yondashuvidan foydalanib tinglovchilarga "standart" ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar. Shunga qaramay, ekvivalentlik tushunchasi bir nechta muammolarni keltirib chiqaradi, chunki biz uni turli xil uslublarda talqin qilishimiz mumkin. Kontekst kabi jihatlar xam ekvivalentlikda ko'rib chiqiladi. Shunga aloqador holda, J.Katford tarjimaga "bir tildagi matn xosil qiluvchi materiallarni boshqa tilda ekvivalent bo'lgan matn hosil qiluvchi materiallar bilan almashtirish yoki o'zgartirish", deb ta'rif beradi.

Ekvivalentlik borasida juda ko'p olimlar o'z qarashlarini bildirib o'tishgan. Bizning ham bu masalaga e'tiborimiz qaratilishi matnda uchraydigan turli til birliklarining morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlardan har ikkala tillarda o'zaro ekvivalent yoki ekvivalenti mavjud bo'lmaslik holatlari bilan aloqadorlikda yuzaga keladi. Tarjimada ekvivalent jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o'tishda tinglovchida to'g'ri ma'lumotni shakllantirish holatida sodir bo'ladi.

Tarjimaning maqsadi manba va tarjima tili o'rtasida ekvivalentlik aloqasini o'rnatish bo'lganligi sababli, to'laqonli tarjimani ikki mezon bo'yicha baholash mumkin:

1. Ishonchlilik va aniqlik (asliyat matnning ma'nosini unga fikr qo'shmasdan yoki olib tashlamasdan aniq tarjima qilish);

2. shaffoflik (ma'lum bir maqsadda tilning grammatik, sintaktik va idiomatik konventsiyalarini saqlab qolish).

S.Xalversonning yondashuviga ko'ra, "ekvivalentlik ikki obyekt o'rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi va munosabatlar har qanday salohiyat, fazilatlar nuqtai nazaridan o'xshashlik, tenglik munosabatlari sifatida tavsiflanadi". Ekvivalent tarjima ikki til va ikki nutq o'rtasida o'zaro shakliy va mazmun jihatidan yaqinlik hosil qilganda yuzaga keladi.

A. Pimning ta'kidlashicha, "ekvivalentlik tarjimini belgilashi kerak, tarjima esa o'z navbatida ekvivalentlikni belgilaydi". M. Baker o'zining "In other words: A Coursebook on Translation" asarida tarjima jarayoniga tegishli turli bosqichlarda ekvivalentlik g'oyasini va tarjimaning barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. U ekvivalentlikni quyidagicha tasniflaydi: So'z darajasidagi ekvivalentlik. So'z darajasining ekvivalentini aniqlashda tarjimon bitta so'zni ko'rib chiqishda jins va vaqt kabi bir qator omillarga e'tibor berishi lozim bo'ladi; Grammatik ekvivalentlik tillar aro har xil grammatik kategoriyalar (son, zamon, aspekt, nisbat, shaxs-son, jins)da namoyon bo'ladi; Matn ekvivalentligiga ma'lumot va ketma-ketlik bo'yicha manba matni va tarjima matni o'rtasida tenglik kuzatilganda erishiladi. Tarjimon quyidagi uchta: "matn turi", "tarjima maqsadi" va "kitobxon auditoriyasi" kabi omillaraga tayanib ishyuritish lozim bo'ladi;

Pragmatik ekvivalentlik orqali tarjimon tinglovchilarga boshqa millat madaniyatini tarjima matnida taavirlab berishga xarakter qiladi. Tarjimashunos olim Qudrat Musaev o'zining "Tarjima nazariyasi asoslari" asarida ekvivalentlik va adekvatlik hodisalariga batafsil to'xtalib o'tgan. Manba va tarjima matnlarining o'zaro muvofiqlik darajalarini besh turga ajratib, ularni misollar bilan yoritgan. Q.Musaevning fikricha, manba va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon buladi: Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uygunligi ko'z ilgamas darajada namoyon bo'ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan tilvositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasada, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir.

Ekvivalentlikning uchinchi turida asliyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to'la uyg'un bo'lmaydilar.

Ekvivalentlikning to'rtinchi turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblarining yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi, ya'ni asliyatdagi ko'pchilik so'zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin so'zlarni qidirib topish, shuningdek, tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi singari qurilishiga mos sintaktik qurilishli ifoda vositasidan foydalanish zarurati paydo bo'ladi.

Ekvivalentlikning beshinchi turda asliyat va tarjima matnlari orasidagi ekvivalentlik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ushbu ekvivalentlik turi ikki til matnlarining bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom saqlanishi bilan ajralib turadi.

Ekvivalentlik tarjima jarayonida ikkita asosiy vazifa bajaradi. Birinchisi, asliyat va tarjima matnlarining o'zaro bir-biriga muvofiq kelish darajasi bo'lsa, ikkinchi funksiyasi ekvivalentlik tarjima usuli sifatida ko'rilib, uning bir necha turlari mavjud. Asliyat va tarjima matnlari

oʻrtasidagi ekvivalentlik darajalari borasidagi masalalar boʻyicha ishimizning keyingi bobda batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lugʻati inglizcha-ruscha. T., 1993.
3. Bektemirov X., E.Begmatov. Mustaqillik davri atamalari. –T.,2002.
4. Barotov.Z Iqtisodiy matnlarda neologiznlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
5. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B.
6. Колб Р.В. Родригес Р.Д. Финансовый менеджмент: Учебник / Пер. с англ. М., 2001.
7. Лупей Н.А. Финансы: Учебное пособие. М., 2004.
8. Любимцев Ю.И. Финансовая политика: российский путь. М., 2005.
9. Ли Ч.Ф., Финнерти Дж. И. Финансы корпораций. М., 2000.
10. Лихачева О.Н. Финансовое планирование на предприятии: Учебно-практическое пособие. М., 2003.
11. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
12. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
13. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
14. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
15. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
16. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
17. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
18. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
19. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" rakana's love"." Конференции. 2021.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
21. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.

22. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
23. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
24. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
25. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
26. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
27. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).